

SO'ZNING LUG'AVIY MA'NOSINI O'RGATISHDA MASHQ VA TOPSHIRIQLARNING O'RNI

Rajapova Kumush Masharipovna,
Qaraqalpoq davlat universiteti dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'zning lug'aviy ma'nosini o'quvchilarga anglatish jarayonida mashq va topshiriqlardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Lug'aviy ma'no ustida ishlashning nazariy asoslari, uning nutq rivojidadagi ahamiyati hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan amaliy usullar yoritilgan. Shuningdek, turli xil mashq va topshiriqlar orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: leksikologiya, lug'aviy ma'no, grammatik ma'no, bir ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, o'z ma'no, ko'chma ma'no, mashq, topshiriq, interfaol metodlar, nutqiy kompetensiya, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы эффективного использования упражнений и заданий в процессе объяснения лексического значения слов учащимся. Освещены теоретические основы работы с лексическим значением, его важность в развитии речи, а также практические методы, применяемые в учебном процессе. Кроме того, разнообразные упражнения и задания предоставляют возможности для расширения словарного запаса учащихся, развития самостоятельного мышления и формирования речевых компетенций. В статье также уделяется особое внимание эффективности интерактивных методов и современных педагогических подходов.

Ключевые слова: лексикология, лексическое значение, грамматическое значение, односложные слова, многосложные слова, собственное значение, разговорное значение, упражнение, задание, интерактивные методы, речевая компетенция, педагогическая технология.

Abstract. This article analyzes the issues of effective use of exercises and tasks in the process of explaining the lexical meaning of words to students. The theoretical foundations of working on lexical meaning, its importance in the development of speech, and practical methods used in the educational process are highlighted. In addition, various exercises and tasks provide opportunities to increase students' vocabulary, develop independent thinking, and form speech competencies. The article also pays special attention to the effectiveness of interactive methods and modern pedagogical approaches.

Key words: lexicology, lexical meaning, grammatical meaning, monosyllabic words, polysyllabic words, proper meaning, colloquial meaning, exercise, assignment, interactive methods, speech competence, pedagogical technology.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish, ularning fikrni aniq va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, so'zning lug'aviy ma'nosini o'rgatish va uni nutq jarayonida to'g'ri qo'llashga o'rgatish o'quvchilarning til boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, leksikologiya so'z haqidagi fan bo'lib, tilning lug'at boyligini o'rganadi. Bugungi kunda bu bo'limni "So'zshunoslik" atamasi bilan ham yuritamiz. Bu bo'limi so'z va uning ichki atash ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Leksikologiya o'quvchi

soʻz boʻyligini oshirish va boyitishda katta imkoniyatlarga ega. Bu boʻlimni oʻrganish jarayonida oʻquvchilar tildagi soʻzlar va ularning lugʻaviy maʼnolari, bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar, koʻp maʼnoli soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari, maʼno koʻchish usullari, maʼnodosh soʻzlar, zid maʼnoli soʻzlar, shakldosh soʻzlar, talaffuzdosh soʻzlar, uyadosh soʻzlar kabi hodisalar bilan tanishtiriladi. Soʻz – tilning asosiy birligi boʻlib, inson fikri va his-tuygʻularini ifodalash vositasi. Har bir soʻz muayyan maʼnoni anglatadi va nutqda maʼlum vazifani bajaradi. Tilshunoslikda soʻzning lugʻaviy maʼnosi deganda soʻz orqali ifodalanadigan asosiy maʼno tushuniladi. Lugʻaviy maʼno soʻzning voqelikdagi narsa, belgi, harakat yoki holat bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Masalan, “kitob” soʻzi maʼlum bir oʻqish vositasini, “qizil” soʻzi rangni, “bormoq” soʻzi harakatni anglatadi.

Soʻz – tilning asosiy birligi boʻlib, inson fikri va his-tuygʻularini ifodalash vositasi. Har bir soʻz muayyan maʼnoni anglatadi va nutqda maʼlum vazifani bajaradi. Tilshunoslikda soʻzning lugʻaviy maʼnosi deganda soʻz orqali ifodalanadigan asosiy maʼno tushuniladi. Lugʻaviy maʼno soʻzning voqelikdagi narsa, belgi, harakat yoki holat bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Masalan, “kitob” soʻzi maʼlum bir oʻqish vositasini, “qizil” soʻzi rangni, “bormoq” soʻzi harakatni anglatadi.

Adabiyotlar tahlili. Oʻquvchilar soʻz maʼnosini toʻgʻri anglamasa, ularning nutqida noaniqlik, yoki uslubiy xatolar yuzaga keladi. Shu sababli oʻquvchilarga soʻzning lugʻaviy maʼnosini toʻgʻri anglatish, uning maʼno qirralarini tushuntirish hamda turli nutqiy vaziyatlarda qoʻllashga oʻrgatish ona tili oʻqitish metodikasining muhim masalalaridan hisoblanadi. Oʻquvchilar nutqining taʼsirchanligi, goʻzalligi va izchilligi ularning lugʻat boʻyligi bilan bogʻliq. Boshlangʻich sinfdan boshlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlarigacha boʻlgan davrda oʻquvchilar oʻrganadigan soʻzlar lugʻatining miqdori koʻpaytirib boriladi. Bunda bir qancha xususiyatlar eʼtiborga olinadi. Xususan:

– tildagi soʻzlarning amaliy ahamiyati, yaʼni butun taʼlim jarayoni uchun maʼrifiy ahamiyatga ega boʻlgan soʻzlar;

– soʻzlarning amaliyotda qoʻllanish darajasi, uning doimiy ravishda yoki maʼlum bir holatlardagina qoʻllanishi;

– soʻz maʼnosining toʻla tushunilishi, oʻrinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, lugʻaviy maʼno ustida ishlash jarayonida turli mashq va topshiriqlardan foydalanish taʼlim samaradorligini oshiradi. Bunday mashqlar oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, soʻz boʻyligini kengaytiradi, nutqiy faolligini kuchaytiradi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Masalan, soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini oʻrganish jarayonini tahlil qilib koʻramiz:

1-topshiriq. Quyidagi gaplarni oʻqing. Oʻz va koʻchma maʼnoda kelgan soʻzlarni ajrating.

Bu yil uyimiz oldidagi chinorlar ancha oʻsdi.	Istiqlol tufayli yurtimizning mavqeyi yanada oʻsmoqda.
Bizning yurtimizda ham baland togʻlar anchagina.	Sport boʻyicha yurtimizning obroʻsi baland.

2-topshiriq. Berilgan gaplardagi oʻsmoq, baland soʻzlarining maʼnolarini aniqlang.

Birinci ustunda berilgan gaplardagi oʻsmoq, baland soʻzlari oʻz maʼnosida qoʻllangan. Ikkinchi ustundagi mazkur soʻzlar esa koʻchma maʼnoda qoʻllangan. Demak, bir xil shakldagi soʻzlar boshqa maʼnoda ham qoʻllaniladi va mazkur holat soʻzning koʻchma maʼnosi deb yuritiladi.

3-topshiriq. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»dan foydalanib o‘smoq, baland so‘zlarining ma‘nosini izohlang.

Mana shunday topshiriqlar o‘quvchilardagi mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi va mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, so‘z boyligini oshirish va boyitishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilimizda so‘zlar shakl va ma‘no munosabatlariga ko‘ra ma‘noviy, shakliy jihatdan o‘xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko‘ra ular shakldosh, ma‘nodosh, zid ma‘noli, paronim va uyadosh so‘zlar kabi guruhlarga bo‘linadi.

Mana shu hodisalarning har biri ustida ishlash o‘quvchilarning nutq boyligini oshiradi. Asosan, ma‘nodosh so‘zlar ustida ishlash orqali mana shu natijaga ko‘proq erishish mumkin. Chunki ma‘nodosh so‘zlar tilimizning leksik boyligi hisoblanadi. O‘quvchilar ulardan qancha o‘rinli foydalanilsa, fikrni ravon, go‘zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, so‘zdan to‘g‘ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

Ma‘nodosh so‘zlar ustida ishlashning har xil usullari mavjud. Ularning ichida eng keng tarqalgan usullardan biri ma‘nodosh so‘zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o‘quvchilar mustaqil ravishda bajarishadi. Ular ma‘nodosh so‘zlar qatorlarini tuzish jarayonida yangi so‘zlarni o‘z lug‘at boyliglariga kiritadilar. Buning natijasida shu paytgacha o‘quvchilar umuman ishlatmaydigan yoki kam ishlatadigan so‘zlarning faollashishiga ham zamin yaratiladi. Masalan, vatan, mamlakat, yurt, diyor, el so‘zlarini ko‘raylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh ma‘no (dominanta) kishi tug‘ilib o‘sgan, o‘zi uning fuqarosi bo‘lgan joy, territoriya.

Mazkur so‘zning ma‘nolarini aniqlashda «O‘zbek tilining izohli lug‘atidan foydalanish mumkin:

Vatan - bu so‘zda fuqaro, xalq tushunchasi u mansub bo‘lgan joy tushunchasi bilan birlashgan, shuningdek, unda joy (hudud)ning fuqaro, xalq mansubligi, uning «yashash joyi»i bo‘yog‘i aks etib turadi.

Mamlakat -ko‘proq adabiy nutqqa xos bo‘lib, unda «yashash joyi» bo‘yog‘i juda kuchsiz, hatto yo‘q darajada bo‘ladi. Bu so‘z, umuman, biror xalq yoki xalqlar uchun umumiy (birlashtiruvchi) hududni bildiradi.

Yurt - ko‘proq oddiy nutqqa xos va u ma‘lum joy (hudud) bilan shu joyga mansub xalqni ham qo‘shib ifodalay oladi.

El -nisbatan eskirgan, hozir ko‘proq poetik asarlarda uchraydi.

Diyor - poetik uslubga xos. Bu so‘z, umuman, ma‘lum bir joy ma‘nosida (ma‘lum bir xalqqa mansublik tushunchasisiz) ham qo‘llanadi.

Tahlillar va natijalar. Ushbu qatordagi so‘zlarni ma‘nosiga qarab keng qo‘llanadigan yoki kam qo‘llanadigan yo‘nalishda joylashtirib chiqish topshiriq sifatida berilsa yaxshi samara beradi. Topshiriq ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar so‘z ma‘nolari ustida bosh qotirishadi, natijada, mazkur so‘zlarning ular ongida

mustahkamlanib, nutqlarida faollashib qolishiga imkon yaratiladi. Bu xildagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda takomillashtirish uchun: berilgan so'zlarga ma'nodoshlarni tanlash; ma'lum bir matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan ma'nodosh so'zlarni ajratib yozish; ma'nodosh so'zlar asosida saylanma diktant o'tkazish; har bir ma'nodosh so'zning ma'no noziklarini izohlash singari mashq va topshiriqlar bajarilishi mumkin. Shuningdek, bunday so'zlarni nutq jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarning ma'nodosh so'zlarga bog'liq bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalari takomillashib boradi. Ular nutq jarayonida bir so'zning o'rniga boshqasini qo'llab bo'lmasligini (chehra o'rniga bashara so'zini qo'llab bo'lmaydi), agar qo'llanganda ham u yerdagi ma'noning boshqacha noziklik bilan yuzaga chiqishini amaliy jihatdan sezib olishadi, ko'rishadi. Shuning bilan birga ma'nodosh so'zlar ustida ishlash o'quvchilar nutq boyligini oshiradi, takrordan xalos etadi. Masalan, o'quvchi matn tuzish jarayonida bir gapda osmon so'zini ishlatsa, keyingi jummalarda samo, ko'k, falak so'zlarini ishlatish ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda tildagi zid ma'noli so'zlarning ham ahamiyati katta. Shuning uchun o'qituvchi bu so'zlar ustida ishlashga ham alohida e'tibor qaratishi kerak. Zid ma'noli so'zlar ustida ishlashning usullari xilma-xildir. Masalan:

Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar tanlash: yaxshi – ..., baland – ... , uzoq – ... , oq – ... , uzoq – ..., kulmoq – ... , kecha – ... , ko'p-...kabi;

– zid ma'noli so'zlarning ma'nosini sharhash; ma'nosiga ko'ra (past, oz, yomon, oz, qora, yaqin, yig'lamoq, kunduz ...) qavs ichidagi so'zlardan mosini tanlab ko'chirish;

– yoxshi-yomon, kecha-kunduz, issiq-sovuq, oq-qora, yosh-qari kabi juftliklar ma'nosini aniqlash, ular ishtirokida gap tuzish va matn yaratish kabi amaliy ishlar ustida ishlash orqali o'quvchilar so'z boyligini oshirish.

O'quvchilar nutqini zid ma'noli so'zlar bilan boyitishda xalq maqollarining ahamiyati juda katta. O'qituvchi nafaqat zid ma'noli so'zlarni o'rgatishda, balki ona tili darslarining deyarli barchasida «O'zbek xalq maqollari» kitobi bilan o'quvchilarni oshna qilib borishi lozim. Darsda bajariladigan amaliy ishda yoki uyga vazifa sifatida zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan maqollarni topish va ularning ma'nosini sharhlash ustida ish olib borish mumkin. Masalan:

Topshiriq. Maqollarni moslashtiring.

Do'st achitib gapirar	aqlsiz do'stini
Avval o'yla	qo'l botir.
Do'st boshga boqar	keyin so'yla
Bir kattaning gapiga kir	dushman kuldirib
Ko'z qo'rqqoq	dushman oyoqqa
Aqli o'zini ayblar	bir kichikning

Ma'lumki, badiiy adabiyotda shoirlar zid ma'noli so'zlardan foydalnib **tazod** san'atini yaratadi (Bu san'atlar bo'yicha adabiyot darslarida ma'lumot beriladi). Ona tili

darslarini adabiyot darslari bilan bog‘lab, she‘riy asarlardan zid ma‘noli so‘zlarni topishni ham topshiriq sifatida berish mumkin. Bunday topshiriqlar darsning tarbiyaviy maqsadini amalga oshirishga ham yordam beradi. Masalan, Abdulla Avloniy qalamiga mansub bo‘lgan quyidagi she‘r ustida ishlash mumkin:

So‘ylasang, so‘yla **yaxshi** so‘zlardan,
Yo‘qsa **jim turmog‘ing** erur yaxshi.
O‘ylasang, yaxshi fikrlar o‘yla,
Yo‘qsa, gung bo‘lmog‘ing erur yaxshi.
Ishlasang, ishla yaxshi ishlarni,
Yo‘qsa, **bekorlig‘ing** erur yaxshi.

1-topshiriq. Berilgan she‘riy parchadagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga zid ma‘noli so‘zlar toping.

2-topshiriq. Matndagi zid ma‘noli so‘zlarni toping va ular ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiling.

3-topshiriq. She‘riy parcha haqidagi fikrlaringizni ayting.

Zid ma‘noli so‘zlar nutqning ta‘sirchanligini oshiradi. Shuning uchun ham ma‘nodosh va uyadosh so‘zlar qatori zid ma‘noli so‘zlarni o‘rgatish bolaning nutq boyligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, bir xil shakldagi bir necha birlik (so‘z, ibora, qo‘shimcha) shakldoshlik (omonimiya) hosil qiladi. Shakldoshlik asosan, so‘zlar orasida ko‘p uchraydi. Shakldosh so‘zlar aytilishi va yozilishi bir xil bo‘lib, turli atash ma‘nolarni bildiradi. Masalan, o‘t(olov), o‘t (maysa), o‘t (o‘tmoq-harakat), o‘t(inson ichki a‘zosi).

Badiiy adabiyotda shakldosh so‘zlardan so‘z o‘yinlarini yaratib, **tuyuq** janri hosil qilinadi. Shakldosh so‘zlardan foydalangan holda so‘z o‘yinlarini yaratish **tajnis (jinos)** san‘ati deyiladi..

Darsning mustahkamlash qismida tuyuqlar ustida ishlash mumkin. Masalan:

Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi **ot**,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni **ot**,
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg‘iz yursa chang chiqarmas yaxshi **ot**.

1-topshiriq. Misralardagi ot so‘zining ma‘nolarini izohlang.

2-topshiriq. She‘riy qatorlardagi zid ma‘noli so‘zlarni toping.

3-topshiriq. Shakldoshlik hosil qilayotgan so‘zlar yordamida so‘z birikmalari hosil qiling.

4-topshiriq. Tuyuqda qo‘llangan xalq maqolining ma‘nosini izohlang.

O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda shakldosh so‘zlarning ham ahamiyati juda katta.

Paronimlar (talaffuzdosh so‘zlar) – ruscha “para”, ya‘ni “juft” va grekcha “onoma yoki onyma”, ya‘ni “nom” degani bo‘lib, aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va

ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Paronimlar talaffuzda o'xshash tovushlar bilan, yozuvda bir harf bilan farqlanadi. Masalan: yondash (yaqinlash) – yondosh (yonma-yon), otaliq-otalik, asr-asir, sa'va-sava, uxlamoq-uhlamoq.

O'quvchilar paronim so'zlarni qo'llashda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yishadi. Shuning uchun bunday so'zlarni gap ichida qo'llash va lug'at ustida ishlash orqali o'rgatilsa yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun o'qituvchi taxtaga (yoki elektron doskada) bir necha gaplarni yozib tahlil qilishi mumkin. Masalan, Biz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi daholarimiz borligidan faxrlanamiz. Bizning dahamizdan ko'p sportchilar chiqqan. Shu gaplar yozilgandan keyin daha va daho so'zlari izohlanadi:

Daha — shaharning ma'muriy tumani yoki qismi.

Daho — dohiy, dohiylik.

Paronim so'zlar ustida mana shunday amaliy ishlar olib borilsa, o'quvchilar yozma ishlarda ham xatoliklarga yo'l qo'yishmaydi.

Bir turdagi narsa, belgi, voqea-hodisa, harakat ma'nolarini ifodalaydigan, bir mazmuniy guruhga mansub bo'lgan so'zlar uyadosh so'zlardir. Masalan, kiyim turlari: ko'ylak, shim, kostyum, do'ppi kabilar

O'quvchilar bunday so'zlarni ma'nodosh so'zlar bilan adashtirib yuboradilar. Shuning uchun o'qituvchi ularni qiyoslab farqini tushuntirishi lozim. Sinonimlar bir tushunchaning turli qirralarini ifodalaydi, uyadosh so'zlar esa bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalaydi. Uyadosh so'zlar ustida ishlash jarayonida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. Quyidagi har bir so'zga uyadoshlar topib qatorlarni to'ldiring.

Rang turlari: oq,...

Ruhiy holatni bildiruvchi harakat turlari: yig'lamoq,

O'quv qurollari:daftar...

2-topshiriq. Uyadosh so'zlar yordamida so'z birikmalarini hosil qiling.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rgatish jarayonida ko'proq adabiyot darslari bilan integratsiya qilinsa yaxshi natija beradi. O'quvchilarga badiiy asarlardagi so'zlarning ma'nodosh, shakldosh, uyadosh shakllarini topishni mustaqil ish sifatida topshirish mumkin. Shuningdek, bunday so'zlar ustida ishlash jarayonida lug'atlardan keng foydalanish lozim. Asosan, izohli lug'atlar ustida ishlash eng samarali yo'ldir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, so'zning lug'aviy ma'nosi ustida ishlash ona tili ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda mashq va topshiriqlardan samarali foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. — Т.: “Ўқитувчи”, 1995.
2. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Т.:

- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.
3. Неъматов Х., Гуломов А., Зиёдова Т. Ўқувчилар сўз бойлигини ошириш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Ўқитувчи,1996.
 4. То'хлиев В., Shamsiyeva М., Ziyodova Т. О'zbek tili o'qitish metodikasi. Т.: 2010.
 5. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. фан. ном. дисс. авреф. –Тошкент: ТДПИ, 2000.
 6. Ғаниев Т. Она тили бўйича машқлар бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билим фаолиятини фаоллаштириш. Пед. фан. ном. дисс. автореф.–Т., 1991. – 22 б.
 7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-том.–Т.: ЎЗМЭ, 2004.

